

O'ZBEKISTONDA TARJIMASHUNOSLIK TARIXIGA NAZAR

Ismonaliyev Jamoliddin Qo'ldashaliyevich
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimashunoslik sohasining ahamiyati, uning tarixiy ildizlari, mintaqamizda, xususan, O'zbekistonda rivojlanish bosqichlari qisqacha tahlil qilingan. Bu sohada faoliyat olib borgan buyuk olimlarimizning ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Sharq renesansi, sheva, qiyosiy tilshunoslik, tarjimonlik maktabi

Tarjima va tarjimonlik ko'hna davrlardan buyon turli xalqlar madaniyatida ijodiy faoliyat sohasi sifatida shakllanib keldi. Dunyo xalqlari o'rtasida bir-birini bog'lovchi ko'prik vazifasini bajaruvchi bu muhim soha dastlab savdo-sotiq yoki qishloq xo'jaligi kabilarni qamrab oluvchi iqtisodiy hamkorlik maydonida ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, keyingi bosqichda boshqa millat va elatlarni ijtimoiy-madaniy sohalarda bir-birini anglash uchun zarur vositaga aylandi.

Mintaqamizda tarjimonlik faoliyati amaliy jihatdan qadimdan rivojlanib keldi. VIII-XI asrlarda Sharq renesansi nomoyondalari, jumladan Beruniy, Ibn Sino, Farobiy singari mutafakkir olimlarimiz, o'z ilmiy asarlarini asosan arab tilida yozgan va ularning ijodida fors, yunon, rum, lotin tillarida yozilgan asarlarning tarjimalari muhim o'rin egallaydi. Sharqning ilm-fan taraqqiyotida yuksak o'rin egallagan bu allomalar tarjima va tarjimonlik amaliyotining ham yorqin namoyondalari sifatida iz qoldirganlar.

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devoni lug'atit-turk" asari bilan tarjimachilik sohasiga sezilarli hissa qo'shgan. Mahmud Koshg'ariy turkiy qabilalarning shevaga xos so'zlarini arab tiliga tarjima qilgan va turkiy tilli qabilalarning til tuzilishini o'rganib qiyosiy tilshunoslik sohasiga ham hissa qo'shgan.

Abulqosim Mahmud bin Umar Zamaxshariy "Muqaddimat-ul adab" nomli arabcha-forscha lug'at yaratdi. Olim bu asarida arabcha so'zlarni turkiycha va forscha tarjimalarini keltiradi.

Sayfi Saroiy Oltin O'rda va Misrda yashab ijod qilgan shoir va tarjimon, arab va fors tillarini chuqur bilgan va Sa'diyning "Guliston" asarini turkiy tilga tarjima qilgan.

Muhammad Rizo Ogahiy shoir va tarjimon sifatida XIX asrda faoliyat olib bordi. Xorazm tarjimonlik maktabining asoschilaridan biri bo'lgan Ogahiy "Bahoriston", "Yusuf va Zulayho", "Guliston", "Shoh va gado" kabi sharqning durdona asarlarini, shuningdek "Nodirnoma", "Ravzat us-safo", "Zafarnoma" singari tarixiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, o'z davrining yetuk tarjimonlaridan biriga aylandi.

XX asrning ikkinchi choragida ingliz asarlari tarjima qilina boshlandi. "Robinzon Kruzo" ingliz adabiyotidan o'zbek tiliga tarjima qilingan ilk namuna hisoblanadi. Xamza Xakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Mirtemir, Zulfiya kabi ijodkorlar badiiy tarjimachilikda yorqin namuna



Date: 27th December-2025



bo'ldilar. 20-asrning ikkinchi yarmiga kelib tarjima va tarjimashunoslik nazariyasi, uning tarixi ilmiy tahlil qilina boshladi. Jumaniyoz Sharipovning "O'zbekistonda tarjima tarixidan", "Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar" kabi monografiyalari, taniqli olim G'.Salomovning "Tarjima nazariyasiga kirish", "Tarjima nazariyasi asoslari" kabi qo'llanma va darsliklari tarjimashunoslikning nazariy tahliligi oid dastlabki asarlardir.

O'zbek shariyatida yorqin iz qoldirgan shoirlardan biri Abdulhamid Cho'lpon Shekspirning "Gamlet", Pushkinning "Dubrovskiy", "Boris Godunov", Maksim Gorkiyning "Ona" romanini tarjima qilish orqali o'zbek tarjimachiligiga katta hissa qo'shgan.

XX asrda O'zbekistonda faol tarjimonlik maktabiga asos solindi. Mirzakalon Ismoil, Mirziyod Mirzoidov, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zimatov, Husan Ruzimetov, Odil Sharopov, Odil Rahimov, To'xtasin Jalolov, Sharif Tolib, Shoislom Shomuhamedov, Rahmonberdi Muhammadjonov, Anzoriddin Ibrohimov, Tohir Ibrohimov, Zinatilla Ashurboyev, Nabi Muhamedov, Jamol Kamol, Ubaydulla Karimov, Yanglish Egamova, Asomiddin O'rinboyev, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibrohim G'afurov, Nizom Komilov, Ozod Sharafiddinov bu maktabning yorqin vakillaridir[3,92-93B].

Mustaqillik yillarida ham tarjimashunoslik, xususan badiiy asarlar tarjimasi yanada rivoj topdi. Birqator ingliz adabiyoti durdonalari o'zbek kitobxonlari e'tiboriga havola qilindi. XX asrning mashhur ingliz va amerika adabiyoti nomoyondalari, G.Orwell, J.Orwell, J.London, A.Christie, E.Hemingway, F.Scott Fitzgerald, A.Christie, S.Maugham kabilarning shox asarlari tarjima qilinib, o'zbek kitobxoniga havola etildi. Tarjimashunoslik sohasida qilingan bunday ishlar o'zbek kitobxonlariga jahon madaniyatini tanishtirish madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мусаев Кудрат.Таржима назарияси асослари: Дарслик.Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА «Фан» нашриёти, 2005.
2. Таржима санъати (Мақолалар тўплами). Тупловчи: Т.Жураев—Т., Адабиёт нашриёти, 1978.
- 3.I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012. – B.92-93.